

# Tong

# yulduzi

Vatan yagonadir,  
Vatan bittadir!

N: 4 (67325)  
2021-yil 25-yanvar

[www.tongyulduzi.uz](http://www.tongyulduzi.uz)

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqa boshlagan

O'zbekiston Respublikasi bolalar va o'smirlar gazetasi

ISSN-2010-6092



## MAKTABLARDA «TONG YULDUZI» KUNLARI

loyihasi davom etmoqda



Xalq ta'limi vaziri tashabbusi ila nashrimiz jamoasi poytaxtimizdagi maktablarda ijodiy uchrashuv o'tkazmoqda. Toshkent shahar, Chilonzor tumanidagi 162-umumta'lim maktabida bo'lib o'tgan uchrashuv yorqin taassurotlarga boy bo'ldi.

- O'quvchilarimizning ma'naviy-ma'rifiy olamida «Tong yulduzi» gazetasining o'rni beqiyos, - deydi maktab direktori Elzana Yo'ldosheva.

# «BOLALARIMIZNI TELEFON TARBIYALAYAPTI»



*yoxud Prezident rahbarligida o'tkazilgan ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish masalalari bo'yicha videoselektor yig'ilishidan o'lgan taassurotlarim.*

Nazarimda, ona tili va adabiyot faniga qiziqmaydigan, kitoblarni sevmaydigan bolaning o'zi yo'q. Buni aksariyat o'quvchilar mening darsimni yaxshi ko'rishlaridan, faol ishtirot etishlaridan bilaman. Faqt hammasi ularning qo'liga nima tushishiga bog'liq – kitob yoxud telefon, qalbiga esa qanday g'oyalar singdirilishiga bog'liq – ma'naviyat yoxud ommaviy madaniyat.



Kuni kecha Prezidentimiz raisligida ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish, bu borada davlat va jamoat tashkilotlarining hamkorligini kuchaytirish masalalari bo'yicha o'tkazilgan videoselektor yig'ilishini tomosha qilar ekanman, Yurtboshimizning «Bolalarimizni telefon tarbiyalayapti», deya kuyunib so'zlaganlari va bu masalaga jiddiy e'tibor qaratish zarurligini ta'kidlaganlari meni ta'sirlantirdi. Yig'ilishda aytiganiday, aslida ma'naviy ishlar barchamizning vazifamiz ekan, men o'quvchilarimni bundan keyin ham kitob, gazeta-jurnallar bilan do'stlashtirishga, ajoddalarimizning ma'naviy merosini yanada chuqurroq o'rganishlari uchun turli tadbir va uchrashuvlar, ma'naviyat maskanlariga sayohatlar tashkillashtirishni rejaladim. O'quvchining ma'naviy ongini o'stirish, dunyoqarashini kengaytirishda bolalar nashrlarining ham o'mni alohida, albatta. Bu borada men o'quvchilarimni «Tong yulduzi» gazetasini bilan do'stlashtirishga ahd qildim.

Shuningdek, Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyevning,

«Maktablarda 5-sinfdan boshlab yagona sınıf rahbarini tayinlash amaliyotini yo'lga qo'yishimiz kerak. Bu o'qituvchi 11-sinfga qadar bolalarning ma'naviy tarbiyachisiga, ota-onasidek qadrondiga aylanishi zarur», degan fikrlari menga kuch-quvvat, ilhom, rag'bat bag'ishladi. Chindan ham biz onamizdek mehribon ustozlarimizni hamon unutmagan ekanmiz, bugun o'zimiz ham o'quvchilarimizning ikkinchi onasi, sir-doshi, kerak bo'lsa, do'sti va eng asosiyisi, ma'naviy tarbiyachisiga aylanishimiz zarur. Bu yo'lda men o'quvchilarga bor mehr va e'tiborimni, billimimni berishga tayyorman. Ularning ma'naviyati yuksak, komil inson bo'lib ulg'ayishlarini juda-juda istayman!

Mamlakat

AMINJONOVA,  
Farg'ona viloyati, Dang'ara tumanidagi 8-umumta'lum maktabining ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi



## KITOBXONLIK - ODATIM

*Kitob! Bu so'z zamirida olam-olam ma'no mujassam. Kitob – bu sodiq do'st, maslahatgo'y. Uning zaboni yo'q, lekin hamma tilda gapira oladi, qalbsiz, biroq barchaga mehr-muruvvat ulashadi. U yo'lini yo'qotganga to'g'ri yo'l ko'rsatadi, o'quvchi ma'naviyatini yuksaltiradi.*

*Vatanni, tabiatni, koinot sirlarini tanitadi. Bir so'z bilan aytganda, kitob beminnat ilmlar xazinasidir.*

Ma'naviyatni yuksaltirish vositasi bu kitobxonlik. Kitobxonlik orqali Vatanni, millatni dunyoga tanitish mumkin. Kitob o'qish mening eng sevimli mashg'ulotim. Yaqinda Chingiz Aymatovning «Asrga tatigulik kun» asarini o'qib tugatdim. Bu asar menda yaxshi taassurot qoldirdi. Insonlar mehnatini qadrlash, ularga mehr-muruvvat ulashish, og'ir kunlarda yonida bo'lishni o'rgatdi. Men bu fazatlarni Kazangap, Edigey kabi asar qahramonlardan o'rgandim. Ular ayoliga, qo'shnisiga, bolalariga juda g'amxo'r.

Kitobxonlik aqlimizni charxlaydi, dunyoqarashimizni kengaytiradi. Do'stlarimizni ko'paytiradi. Do'stlar bilan kitobga doir bahs-munozaralar o'tkazish orqali chinakam kitobxon bo'lishi mumkin. Hattoki Zulfiyaxonim nomidagi Davlat mukofotiga, «Yosh kitobxon» tanlovida «Prezident sovg'asi»ga ega bo'lismiz mumkin.

Donolar hikmatida aytiganidek, «Kitob odamni bilag'on, suhbat – topqir qiladi, yozib olish odati esa uni aniqlikka o'rgatadi».

Komila YUSUFJONOVA,  
Farg'ona viloyati, Rishton tumanidagi  
19-umumta'lum maktabi o'quvchisi

## BUYUK KELAJAK SARI

*Ingliz tili faniga ishtiyoyqim juda balandligi sababli she'r yozib, ingliz tiliga tarjima qilib boraman.*

Bu yo'nishda 2015-yildan buyon turli musobaqlarda faol qatnashib, faxrli o'rinnlari egallab kelmoqdaman. Bularidan: 2019-yilda Ingliz tilidan yozma ishlar, «Intermediate level»ining, «Debate competition», «The best speaker» shahar bosqichi, 2020-yil esa «The best writer» ko'rik-tanlovlarida g'oliblikni yo'lga kiritganman. Kelajakda ingliz tilini o'rganishda turli qo'llanmalar, dasturlar yaratish va o'zbek she'riyatini dunyoga tanitishni eng katta maqsad qilganman.

Sevinch SULTONOVA,  
poytaxtimizning Mirobod tumanidagi  
125-umumta'lum maktabining  
9-«B» sinf o'quvchisi



# USTOZLIK MAS'ULIYATI

Mana, yigirma yildan ham oshibdiki, maktabda ona tili va adabiyot fanidan dars berib kelmoqdaman. O'quvchilarimni ona tilimizning jozibadorligidan bahramand etayotganim bilan faxrlanaman. «Tong yulduzi» gazetasi o'quvchilik yillarimizdan buyon men uchun qadri gazeta. Uning har bir sahifasini katta qiziqish bilan o'qiyman.



## Bir/kuri darsda...

Men ham gazetaning «Bir kuni darsda» sahifasi uchun maqola yozishni dilimga tugdim. Bu borada ko'pgina xotiralar yodimga tu-shadi. Pedagogik faoliyatim davomida qanchadan qancha ota-onalar bilan muloqotda bo'laman. Ulardan iliq va minnatdorlik so'zlarini eshitganimda, o'qituvchi ekanligimdan g'ururlanib ketaman. Darslarimda a'lo baholarga o'qib, ona tili fanidan «Fan olimpiadasi»ning viloyat bosqichida ham faol qatnashgan Adiba ismli o'quvchim bor edi. Uning 60 yoshlardan oshgan bobosi bir kuni maktabga kelib, darsda ekanligimda meni izlab topibdi. So'ngra, u nabirasiga yaxshi bilim bergenman uchun shunday minnatdorchilik so'zlarini aytdiki, o'sha paytdagi quvonchimni ta'riflashga tilim ojiz. Hozirda ana shu o'quvchim oly o'quv yurtining talabasi.

Yana bir voqeа. 5-sinf o'quvchilariga dars o'tayotgan edim. Eshik taqillab qoldi. Qarasam, shu sinfdan o'qiy-digan Shohruh ismli o'quvchining onasi turibdi. U ochiq chehra bilan:

— Mumkinmi darsningizga kirib o'tirsam? — dedi.

— Mayli, — dedim-da, uni xonaga taklif etib, so'ngra darsni davom ettirdim. Onaxon darsni diqqat bilan kuzatardi. Shohruhning ham boshqa sindoshlari kabi biyron-biyron javob-lari, doskaga husnixat bilan yozishi uni haya-jonga solayotganini sezib turdim. Dars yakunida Shohruhning onasiga so'z berdim. U o'quvchilarga qarab: «Bolalar, darsningizni kuzatib o'tirib sizlarga juda havas qildim. To'g'isini aytasam, sizning o'rningizda bo'lib qolgin keldi. A'lo baholarga o'qinqlar, bolalarim. Yaxshi o'qisangiz, ustozingiz kabi biror kasbning puxta bilimdoni bo'lasizlar. Men o'zim o'qimaganim uchun ham o'g'limning katta o'qishlarda o'qib, katta ishlarda ishlashini orzu qilaman», dedi. Bu so'zlar meni ham to'lqin-lantirib yubordi. Shohruh kabi o'quvchilarga yaxshi bilim berishim bu kabi onalarni niyatlariga yetkazishga sabab bo'lishimi, ustozlik mas'uliyatini yana bir bor ich-ichimdan his qildim.

Malohat MIRZABOYEVA,

Namangan viloyati, Mingbuloq tumani 9-umumta'l'm maktabining oly toifali ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi



## YANGI O'ZBEKISTON!

Partamda o'tirib dunyo kezaman,  
Anglayman birma-bir olam sirlarin.  
Xayolan g'aroyib uylar chizaman,  
Kitobim varaqlab, olaman bilim.

Baralla aytaman iftixor bilan,  
Yurtimni etaman dillarda doston.  
Boshlanar maktabim ostonasidan,  
Eng buyuk, eng yangi, zo'r O'zbekiston!

Yaqinda sinfimizda «Yangi O'zbekiston ostonasi maktabimiz ostonasidan boshlanadi», deb nomlangan ajoyib tadbir bo'lib o'tdi. Unda sinf rahbarimiz Tursunoy Hasanovaning ushbu she'rini baralla aytdik. Tadborda ishtirok etgan maktabimiz rahbari bizning faol sinf ekanligimizni e'tirof etdilar. Tadbir bahonasida direktorimiz sevimli nashrimizda chizgan rasmlarimiz, yozgan maqolalarimiz bilan faol qatnashganimiz uchun bizga faxriy yorliq hamda sovg'alar taqdim etdilar.

O'z navbatida, bizning oramizdan ham kelajakda ibn Sino-yu Ulug'beklar chiqishiga va'da berdik.

**Buxoro viloyati, G'ijduvon tumanidagi 43-umumta'l'm maktabining 2-«B» o'quvchilari Ruxshona A'ZAMOVA, Murodjon SHOKIROV, Asilbek BAHODIROV, Sevinch FAZLIDDINOVA, Shahzoda BAXSHILOYEVA, Gulnora AXTAMOVA, Jo'rabek JAHONOV, Zilola OLIMOVA**



## 5 TASHABBUSDA -SINF G'OLIB

5 tashabbus doirasida poytaxtimizning Yashnobod tumani 227-umumta'l'm maktabida «Eng yaxshi kitobxon» tanlovi bo'lib o'tdi.

Tanlovda faol qatnashgan 5-sinf o'quvchilari alohida e'tirof etilib, esdalik sovg'alari bilan taqdirlandi. Tadbir o'quvchilarining mutolaa-ga bo'lgan mehrini oshirdi. Bu ularning yuz-ko'zidagi sevinchdan, nigojlaridagi hayratdan sezilib turardi. Buning uchun o'z kasbining fidoyilarib bo'lmish kutubxona mudiri Shahlo Ro'ziyeva hamda ona tili fani o'qituvchilari Xurshida Sultanova, Gulsinoy O'rinboyevalardan o'quvchilar behad xursand bo'lisdidi.

# ONAM BEBAHO DEB ATAGAN ISHIM



*Men Farg'ona viloyatining so'lim Rapqon qishlog'ida tug'ilganman.*

*Bolaligimdan qo'l mehnatiga, kashta tikish, matoga turli xil rasmlar chizib, rangli ipak bilan bezashga, izolit usulida gullar tikishga, ko'rkan, betakror liboslar yaratishga qiziqaman. Birinchi qo'l ishlarimni onamga ko'ssatganimda, ular hayrat bilan tomosha qilgan. Ishlarimni maqtab, bu ishni davom ettirishimni aytgandi.*

Ijodiy ishlarimga yaqin dugonalarim Muslima va Sevinchxon ham havas qilishadi, men esa bilganrimni ularga o'rgatishga sira erinmayman. To'garak rahbarimiz Mohiraxon Mo'ydinova barcha ishlarimga a'lo baho qo'yadi va sinfdoshlarimga meni doimo o'mak qilib ko'ssatadi. Shuningdek, badiiy asarlar o'qish ham jon-u dilim. Abdulla Qodiriyning «Mehrobdan chayon», «O'tkan kunlar», Cho'ponning «Kecha va kunduz», Abdulla Qahhorning «Sarob» romanlarini o'qiganman. Hozirda Isoqjon Nishonovning «171-jinoyat ishi» qissasini mutolaa qilyapman.




Kelajakda maktabni a'lo baholarga tamomlab, Toshkent davlat to'qimachilik institutida o'qib, dizaynerlik sohasini mukammal darajada egallamoqchiman, o'z biznesimni yo'nga qo'yamoqchiman. Biznesim asosini yirik bir «Atelye» tashkil qiladi. Atelyedan keladigan foydani o'quv markazi ochishga sarflayman. U yerda o'z hunarimni yoshlarga o'rgatish niyatim bor. Bu orzularimni amalga oshirish uchun doimo izlanishda bo'lamani.

**Husnora MUHAMMADJONOVA,**  
Farg'ona viloyati, Beshariq tumanidagi  
44-umumta'lum maktabining 10-sinf o'quvchisi

Darhaqiqat, hunar o'r-gangan kishi bir umr xor bo'lmaydi, kezi kelganda, o'z hunarini ishga solib, har qanday qiyin vaziyatdan bermalol chiqib keta oladi. Bugun siz-larga tanishtirmoqchi bo'lgan qahramoni-miz samarqandlik Farangizning ham to'qish hunari orqali o'ziga, ham atrofdagilarga nafi tegmoqda. Farangiz Ibragimova Samarqand

shahridagi 50-umumta'lum maktabining 6-sinfida tahsil oladi. Shu bilan birgalikda,



## MUSHOIRA DAVOM ETADI

Samarqand viloyati, Payariq tumanidagi 14-umumta'lum maktabining ijodkor o'quvchilaridan Guljaxon O'rolboyeva va Bahora Ulashevalar «Samarqand mushoira» tadbiri hamda «Sharq yulduzi» jurnalining taqdimotida ishtirot etishdi. Ular Samarqand Yozuvchilar uyushmasining eng yosh a'zolari sifatida e'tirof etildi.

## MEN SHOIRA BO'LAMAN...

*Yuqoridagi sarlavhani o'qib, aslo hayron bo'lmang. Chunki men chindan ham oldimga mana shunday maqsad qo'yganman. Bu borada menga «Tong yulduzi» gazetasi tahririyatining xodimlari ko'maklashishmoqda.*



Tahririyatga ilk bor meni adabiyot o'qituvchimiz Dilfuza opa Suvonova olib kelgandi. O'shanda bizni juda yaxshi kutib olishgan va ijod namunalarimni olib qolishgandi. Ilk marta gazetada mittigina

hikoyam chop etilgandi. Men uni ustozlarim, sinfdoshlarimga ko'ssatganimda, ularning xursandligini bir ko'rsangiz edi.

Maktabda darslardan so'ng adabiyot drama to'garagiga yo'll olaman. Ko'pgina tadbirlerda qatnashib, 1-o'rinni olishga sazovor bo'lganman. Maktab bo'yicha meni «Madaniyat sardori» etib saylashgan. Shu bois, ayrim ijodkor tengdoshlarim menga hikoya va she'rlarini olib kelishadi. Birgalikda ularni tahlil qilamiz. Kitob o'qish jon-u dilim. Chunki kitob orqali ko'proq ijod qilishga intilaman. Men kelajakda bundan-da ko'proq natijalarini qo'lga kiritishga harakat qilaman.

**Nozimaxon RUSTAMOVA,**  
Toshkent viloyati, Yangiyo'l tumanidagi  
42-umumta'lum maktabining 6-«B» sınıf  
o'quvchisi

## EPLI QIZNING NURLI DUNYOSI

*Qadimda ulamolardan, kishi bir umr baxtli va pulsor bo'lib yashashi uchun nima qilishi kerak, deb so'rashganida, ular: «Ilm-u hunar o'rganmoq joiz», deb javob berishgan ekan.*



3 yildan buyon shahardagi «Barkamol avlod» bolarlar ijodiyot maktabining

to'qish to'garagining faol a'zosi. U ustozi Nilufar Temirovadan ushu hunarni



havas-u qunt bilan o'rganmoqda. Iqtidorli va ijodkor qiz to'qish orqali ko'pgina tengdoshlarining havasini orttimoqda. Uning to'qigan buyumlariga talab kundan kunga organligi bois, ushu buyumlarning savdosini ham yo'nga qo'yan. Quyidagi fotosuratlar orqali chindan ham Farangizning qo'l gul ekanligiga guvoh bo'lasiz.

**Ozoda TURSUNBOYEVA**

A cruel lion lived in the forest. Every day, he killed and ate a lot of animals.

The other animals were afraid the lion would kill them all.

The animals told the lion, «Let's make a deal. If you promise to eat

only one animal each day, then one of us will come to you every day. Then you don't have to hunt and kill us».

The plan sounded well

thought-out to the lion, so he agreed, but he also said, «If you don't come every day, I promise to kill all of you the next day!»

Each day after that, one animal went to the lion so that the lion could eat it. Then, all the other animals were safe.

Finally, it was the rabbit's turn to go to the lion.

The rabbit went very slowly that day, so the lion was angry when the rabbit finally arrived.

The lion angrily asked the rabbit, «Why are you late?»

«I was hiding from another lion in the forest. That lion said he was the king, so I was afraid».


deep with water at the bottom. The rabbit told the lion, «Look in there. The lion lives at the bottom».

When the lion looked in the well, he could see his own face in-the water. He thought that was the other lion.

Without waiting another moment, the lion jumped into the well to attack the other lion. He never came out.

All of the other animal in the forest were very pleased with the rabbit's clever trick.

## THE LION AND THE RABBIT



The lion told the rabbit, «I am the only king here! Take me to that other lion and I will kill him».

The rabbit replied, «I will be happy to show you where he lives».

The rabbit led the lion to an old well in the middle of the forest. The well was very

### ANSWER THE QUESTIONS

#### 1. What is this story about?

- How a clever rabbit tricked a cruel lion
- How rabbits learned to hide from lions
- How a rabbit pleased an angry lion
- How to be safe when you hunt in the forest

#### 2. What did all the animals say to the lion?

- They said they wanted him to be their king.
- They said that the rabbit would be there in a moment.
- They said that they would allow him to eat one of them a day.
- They said that they would hide at the bottom of the well.

#### 3. Why did the rabbit take the lion to the well in the middle of the forest?

- So a lot of animals could see the rabbit walking with the lion
- So the lion could attack the «other» lion
- So the lion could drink water
- So the other animals would be afraid of the rabbit

#### 4. Which of the following is true at the end of the story?

- The lion attacked another lion and they both got hurt.
- The lion cannot reply to the rabbit, so the rabbit wins.
- The lion finally dies.
- The lion is pleased by the rabbit's words, so it does not eat the rabbit.

#### 5. What did the lion see when it looked in the well?



## YOG'AYOTGAN OPPOQ QOR HAQQI

Qurimagan qo'lqoplarimni  
Olar edim pechka ostiga.  
Chana yasab sirpanar edik,  
Sinib ketgan terak po'stidan.

Sovuq qotgan yosh o'g'lingizni,  
Mehr bilan isiting, ona.  
Xastalanib qolmasin, deya,  
Malinali choy damlang yana.



Yog'ayotgan shu qor, qish haqqi.  
Katta shoir bo'lar o'g'lingiz.  
Hali kelar nurafshon kunlar,  
O'g'lingizdan to'lar ko'nglingiz.

Otilardi bo'g'zimdan so'zlar,  
Tutun ketar olis-olisga.  
Osmon esa oppoq qorlarin,  
Otar edi bizning polizga...

**Akmaljon ABDURAHMONOV,  
Andijon viloyati, Muhammad  
Yusuf nomidagi ijod maktabining  
9-«A» sinf o'quvchisi**

Bir bor ekan, bir yo'q ekan, ona tabiatning to'rt farzandi bor bo'lib, ismlari Bahor, Yoz, Kuz va Qish ekan. Ular navbatma-navbat yer yuzida o'z hukmini o'tkazar ekan. Bahor bahorligini, Yoz yozligini, Kuz kuzligini, Qish esa qishligini qilar ekan. Bahor yer yuziga o'z se-pini yoyganda, tabiat shu qadar chiroy ochar ekanki, ta'rifiga til ojiz qolar ekan. Keksa-yu yosh tabiat sehriga mah- liyo bo'lib, qir-adirlarga, tog' bag'iqlariga chiqib dam olishar, she'r-u qo'shiqlar to'qishar ekan. Dehqonlar yerga yaxshi niyatlar bilan urug' qashdar ekan. Bahor esa bu holdan zavq-lanib, odamlarga quvonch ulashishda davom etar ekan.

Oradan oylar o'tib, navbat Yozga kelganda, bog'larda turli-tuman mevalar g'arq pishar, polizlarda qovun-tarvuzlar yetilar, tog'larda zilol suvlar sharqirab oqar, odamlar vaqtlanini xursandchilik bilan o'tkazishar ekan.

Kunlar bir-birini quvib hukmronlik qilish navbatli Kuzga kelganda, u o'zga-cha tarovat bilan kirib kelar, uning oltinrang libosi kishilar ko'nliga allanechuk iliqlik ulashar ekan. Yer yuzidagi jamiki jonzot bu faslda qishga tayyorgarlik ko'rар, insonlar, hayvonlar, qushlar, o'simliklar o'zlariga qish uchun zamin hozirlar ekanlar.

Kuz oxirlab, may-donga Qish kirib ke-libdi. O'zining sovuq nafasini atrofga yo-



## ONAMNI ASRAGIN

Tunda uxlamasdan allalar aytgan,  
Kechiksam eshikda entikib kutgan,  
Dard-u qayg'usini ichiga yutgan,  
Onamni asragin sen o'zing, Ollo!

Ko'zidan oqmasin bir tomchi yoshi,  
Doim omon bo'lsin onamning boshi,  
Yuzlarga yetsin-da validam yoshi,  
Onamni asragin sen o'zing, Ollo!

Ba'zida tunlarni tongga ulagan,  
Oila u uchun qadrli bo'lgan,  
Sabrni o'ziga bir o'rt'oq bilgan,  
Onamni asragin sen o'zing, Ollo!

**Shohsanam ABIRQULOVA,  
Samarqand viloyati, Bulung'ur tumanidagi  
27-umumta'lum maktabining 9-sinf  
o'quvchisi**

yibdi. Kulgusidan oppoq qor paydo bo'libdi. Atrof kumush rangga burkanibdi. U nazar solib qarasa, hech kim ko'rinnasmash. Ona-sonda ko'ringan bolakaylor ham biroz chug'urlashib, tezda uy-uylariga kirib ketisharmish. Odamlar qalin kiyim-larga o'ranib, uylaridan chiqmay qo'yishibdi. Bundan Qish juda xafa bo'libdi. O'z vazifasini chin dildan bajargisi kelmay qolib-di. Kulmay qo'ygani uchun qor ham yog'may qo'yibdi. Buni kuzatib turgan Ona tabiat Qishning yoniga boribdi: «Bolajonim, yur senga bir nar-sa ko'rsataman», debdi. Ular bir-galikda kela-jakka sayohat qilibishibdi. Shu yili qor kam yoqqani uchun Bahor, Yoz va Kuz o'z hukmronlik davrida tabiatdagi noqulayliklarga duchor bo'lishibdi. Bahor doimgidek yashillikka burkanmabdi, Yozda suvlar sharqirab oqmabdi, Kuzda hosil mo'l bo'lmabdi. Odamlarning yuzida quvonch o'mida g'am-tashvishni ko'ribdi va bu holdan o'ziga to'g'ri xulosa chiqaribi. Unga o'z vaqtida bergen sabog'i uchun onasi – Tabiatga tashakkur ayitib, o'z o'miga qaytibdi. Qilayotgan ishi keyinchalik bo'lsa ham barchaga xursandchilik olib kelishini o'lab, o'z vazifasini sidqidildan bajara boshlabdi.

**Latofat  
HOSILBEKOVA,  
Sirdaryo viloyati,  
Mirzaobod  
tumanidagi  
26-umumta'lum  
maktabi  
o'qituvchisi**



## BUGUN KIM BO'LDIK?!

Uyg'onar har nihol shabnamlar bilan,  
Olam go'zal, baxtli odamlar bilan,  
Yorug'likka chiqdik shod damlar bilan,  
«Kecha kim edig-u, bugun kim bo'lidi?»

Hayot xayol bilan birga bo'lgan dam,  
Tor ko'rinar ba'zan ko'zingga olam.  
Vaqt o'zi ekan-da, eng oliy hakam,  
«Kecha kim edig-u, bugun kim bo'lidi?»

Hayotga zavq bilan boqqa onimiz,  
Tengsiz go'zal, hur bo'ldi makonimiz,  
Tinchlik uchun hatto berdik jonimiz,  
«Kecha kim edig-u, bugun kim bo'lidi?»

Nurga sherik bo'lgan ona diyorum,  
Eng og'ir onda ham suyanchim – borim.  
Sen o'zing erursan chin iftixorim,  
«Kecha kim edig-u, bugun kim bo'lidi?»

**Davron ERGASHEV,  
Jizzax viloyati, Sharof Rashidov  
tumanidagi 29-umumta'lum maktabi  
o'quvchisi**



## YURAGIM PARCHASI

Ko'zimning nurisiz mening gavharim,  
Yuragim parchasi – so'zi javharim.  
Qancha madh etsam-da, ojiz so'zlarim,  
O, mening farishtam, mening farishtam.

Mehringiz taftini his qildim doim,  
Siz mening tengi yo'q ko'kdagi oyim.  
Husn-u fasohatga, sabrga boyim,  
O, mening farishtam, mening farishtam.

Siz uchun doimo fido bu jonim,  
Zulmatga burkanar sizsiz har onim.  
Siz bilan oboddir ikki jahonom,  
O, mening farishtam, mening farishtam.

**Gulmira RAVSHANBEKOVA,  
Xiva shahar Ogahiy ijod maktabining  
9-sinf o'quvchisi**

O'zbek xalqi boy ma'nnaviy, madaniy qadriyatlariga ega. Ana shu qadriyatlar, urf-odatlar, rasm-rusumlar va tarbiya usullari orqali bobolarimiz, momolarimiz farzandlarini tarbiyalab voyaga yetkazishgan. Milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalangan farzandlar odob-axloqda, aql-zakovatda, mehr-oqibat va xalqparvarlikda, jasurlik va mardlikda nom qozongan.

Bir necha ming yillik an'analar va milliy tarbiya o'rniiga yevropacha tarbiya madaniyati kirib keldi. Ular ba'zan tazyiq orqali ham kiritildi. Natijada, xalqimiz tarixan shakllangan boy



## TARBIYA DARSI

dilxiraliklarning oldini olishi, o'sib kelayotgan yosh avlodga ham ma'nnaviy, ham ma'rifiy, ham diniy va tarixiy tomonidan saboq berishi, shubhasiz.

Tarbiya darslarining maktabda joriy qilinishi biz o'qituvchilarga ham juda ma'qul bo'ldi. Boisi, bu fan orqali o'quvchilarimiz har tomonlama bilim va ko'nikmalarini oshiradilar, qo'llaridagi darslikka alohida mehr bilan yondashadilar, mazkur fandan juda ko'p xulosalar oladilar.

Xurshida JO'RAYEVA,  
Navoiy viloyati,  
Karmana tumanidagi  
14-umumta'lum maktabining  
bosqilang'ich sinf  
o'qituvchisi

madaniy va ma'haviy merosidan, oilaviv tarbiya usullaridan ayrildi.

Bugun ko'cha-ko'yda yoshlarning o'zini tutishlari, muomala munosabatlari ba'zan kishining g'ashini keltiradi. Ularning turli so'zlar bilan bir-birini haqorat qilishlari-ku aytmasak ham bo'ladi.



**SPORTNI  
SEV, U  
BILAN  
YASHA!**

*Xabaringiz bor, joriy yilning 10-yanvaridan Jismoniy tarbiya va sport vazirligi hamda Milliy olimpiya qo'mitasi tomonidan respublikamizning barcha hududlari bo'ylab «Sportni sev, sport bilan yasha!» shiori ostidagi ommaviy sport festivaliga start berildi.*

Yaqinda poytaxtimizning Mirobod tumanidagi 1-bolalar va o'smirlar sport maktabida yuqori sinf o'quvchilari o'rtasida shashka, badminton, stol tennis, tosh ko'tarish singari sport turlari bo'yicha musobaqalar o'tkazildi. Mazkur bellashuvlarda 80 nafar sportchi yoshlar ishtiroy etishdi. G'oliblar faxriy yorliq va esdalik sovg'alari bilan taqdirlanishdi.

Nurbek QIDIRALIYEV

*Poytaxtimizning Yunusobod tumanidagi 265-umumta'lum maktabi o'quvchilari*

## KATTA TANAFFUSDA...

*Uxlamayapman, o'layapman.*

*A'lochi bo'lish qanday zo'r! Bugun hammadan ko'p besh baho oldim.*

*- A-a-a! Bo'ldi, boshqa qaytarilmaydi. Quloqlarim hali menga kerak.*

*- Agar yana qulqoszilik qilsang, ulardan ajralib qolasan.*

*Mening chiroqli, xushbo'y gullarim, sizlarni kim xafa qildi? Hozir o'zim sizlarga suv quyib, yaxshilab parvarishlayman.*

*- «Don-don ziki»... Yana yutqazdim...*

*Uff... Sevimli ruchkamni topolmayapman. Qayerda qoldi ekan-a?*

*Shirinliklar jon-u dilim.*

*- Sendan oriq bo'lsam ham, albatta, yengaman.*

*- Polvonning kuchini bilmabsan hali...*

*- Meni ko'chiriyapti, deb o'ylamang...*

# RANGLAR JILOSI



Dilnoza RO'ZIBOYEVA,  
P. P. Benkov  
nomidagi Respublika  
ixtisoslashtirilgan  
rassomlik maktabining  
10-sinf o'quvchisi

**BO'SH O'TIRMAY, BOSH QOTIR!**

## «RAQAMLI NOMLAR» TOPQIRLIK MASHQI

Quyida ta'riflari bayon etilgan nomlar kataklardagi raqamlar bilan boshlanadi. Ularning  
to'liq atalishini topib, qatorlarga yozish bilan topqirligingizni sinab ko'ring.

1. Buyuk Britaniya va AQSHdagi nomdosh shahar.
2. Tinish belgisi.
3. Namangan viloyatidagi shahar.
4. Qoraqlapog'istonndagi shahar.
5. Xamirli taom.
6. Farg'ona viloyatidagi tumän.
7. Balxash ko'liga quyladigan daryolar soniga muvofiq nom olgan Qozog'istonning janubiy sharqiy qismi.
8. Dengiz jonivori.

Topshiriqni hal etgandan so'ng, chizmaning o'ng tomonidagi raqamlar juftini (birinchisi so'z, ikkinchisi harf tartibini anglatadi) javoblardagi harflar bilan almashtirish orqali raqam va ho'l meva nomi bilan ataluvchi xaroba shaharni bilib olasiz. Ushbu maskan Vatanimizning qaysi hududida joylashganligini bilasizmi?

1	Bir					***	5/7
2	Ikki					*****	6/7
3	Uch					***	2/5
4	To'rt					*****	1/7
5	Besh					***	3/4
6	Olti					*****	6/6
7	Yetti					*****	8/5
8	Sakkiz					*****	4/5

Tuzuvchi: Foziljon ORIPOV

NARGIZA tayyorladi

**BIZNING TELEGRAM RAQAMIMIZ: (94) 645-90-70**



Muassis:

O'zbekiston Respublikasi  
Xalq ta'limi vazirligi

Bosh muharrir  
Feruza ADILOVA

Gazeta O'zbekiston Respublikasi  
Prezidenti administratsiyasi  
huzuridagi axborot va ommaiy  
kommunikatsiyalar agentligi  
da 0208-raqam bilan 2019-yil  
10-iyunda ro'yxatdan o'tgan.

TAHRIR HAY'ATI:

Dilshod KENJAYEV,  
Alisher SA'DULLAYEV,  
Murtaza SULTONOV,  
Feruza JALILOVA,  
Ashurali JO'RAYEV,  
Feruz MATYOQUBOV  
(mas'ul kotib)

Navbatchi muharrir

Nodira NAZAROVA  
Rassom  
Feruzbek  
KAMOL o'g'li  
Sahifalovchi-dizayner  
Shaxobiddin  
MAXMADIYEV

«O'zbekiston» NMUI bosma-  
xonasida chop etdi.  
Gazetaning poligrafik jihatidan sifatlari  
chop etilishiha bosmaxona mas'ul.  
Manzillimiz va bosmaxona manzili:  
Toshkent shahri, Navoiy ko'chasi,  
30-uy. Indeks: 100011.  
Obuna indeksi: 198.  
www.tongyulduzi.uz  
telegram: t.me/tongyulduz  
Adadi - 2005  
Buyurtma - V-4526

Tahririyatga kelgan barcha  
qo'lyozmalar tahrir qilinadi,  
mualliflarga qaytarilmaydi.  
Gazetaning yetkazib berilishi  
uchun obunani rasmiylashtirgan  
tashkilat javobgar.  
Shakli A-3, 2 bosma tabaq.  
Bahosi kelishilgan narxa.  
Gazeta haftagan dushabna kuni  
chop ettiladi.  
Topshirish vaqt - 18:00  
Topshirildi - 18:00  
Tel. /faks: (99871) 244-63-08



Qovoq - odam  
organizmi uchun  
juda foydalii  
mahsulot bo'lib,  
tez hazm bo'luvchi  
parhezbop sabzavot  
hisoblanadi.

Bugungi darsimizda  
sizga qovoqdan ham  
qozonda, ham gaz pechida  
tayyorlash mumkin bo'lgan  
somsalarni pishirishni  
o'rgatamiz.



## QOVOQLI SOMSA

Xamiriga:

- 500 gr un,
- 1 dona tuxum,
- 50 gr yumshoq sariyog' yoki margarin,
- keragicha suv.

Somsa ichiga:

- 500 gr qovoq,
- 2 dona piyoz,
- 1-2 oshqoshiq shakar,
- 0,5 choyqoshiq tuz,
- kashnich urug'i,
- zira,
- murch,
- 50 ml o'simlik yog'i.

Ishni o'tacha idishga iliq suv,  
tuxum va tuz solib, yumshoqroq  
xamir qorish bilan boshlaymiz.  
Xamir tingunga qadar, qovoqni  
tozalab, mayda qirg'ichdan  
o'tkazamiz. Piyoz, ozroq tuz,  
ta'bga ko'ra shakar qo'shib arala-

shirramiz. Mahsulotni qozonga

solib, yengilgina qovurib olamiz.

Endi xamirni katta yoyib, to'rtbur-

chak shaklida kesamiz. Ularga

qovoqli massadan solib, tugamiz.

Tayyor somsalarни yog' solingen

qozon yoki pechda pishirib olishingiz  
mumkin.

Yoqimli ishtaha!